


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL

IYUN/6-SON, V-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BOJXONA YIG'IMLARINI UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	10
Jurayev Jonibek Javlijevich	
TOSHKENT SHAHRIDA UY-JOY FONDINING HOZIRGI HOLATI VA BOSHQARUV TIZIMI TAHLILI.....	15
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN INNOVATSION BANK MAHSULOTLARINI YARATISH VA ULARNI TARG'IB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	20
Shodmonova Sadoqat Jo'raqobil qizi	
"O'ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ ENERGETIKA TIZIMINING HUDUDIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	26
Xakimjanova Surayyo Xabibullayevna	
HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA BUDJETLARARO TRANSFERTLARNING AHAMIYATI	30
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	36
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION UNDER CHANGING REGULATORY CONDITIONS	40
Khumoyun Avezov	
INSON KAPITALINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHNING AGLOMERASION-KLASTER MEXANIZMI	45
Yusubboyeva Dinora Quadrat qizi	
TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBAT DARAJASINING STATISTIK VA EKONOMETRIK BAHOSI: RAQOBAT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	50
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITDA MUHIMLIK DARAJASINI RISKQA BOG'LIQ HISOBLASH METODIKASI.....	57
Misirov Akbarali Pardaboyevich	
SEYSMIK HUDUDLARDA METALL KONSTRUKSIYALARNING HISOBIIY ISHONCHLILIGI VA EKSPLOATATSION BARQARORLIGINI OSHIRISHNING MUHANDISLIK-METODOLOGIK ASOSLARI	64
Yaxshiboyev Mirolimjon Yaqubjon o'g'li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARIDA KIBERXAVF VA UCHINCHI TOMON RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Suxrob Narzullayevich Xolmatov	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA MAHSULOT (ISH, XIZMAT) ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI SOTILISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	77
Xudayberdiyev Nizomiddin Qurbonqulovich	
РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА	83
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'L TRANSPORTI INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH	87
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
HARAKATLANISH JARAYONIDA YO'L-TRANSPORT HODISALARINING KELIB CHIQISHIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR	92
Umid Sadirdinovich Xolmatov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	98
Xujamatova Shaxlo Abdusalom qizi	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA „USTOZ-SHOGIRD“ PLATFORMALARINI JORIY ETISH	103
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI VA MATEMATIK MODELLASHTIRISH.....	108
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	
OCHIQ BANKING VA API TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BANK MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	114
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
ISLOMIY IJTIMOYIY MOLIYA VOSITALARINING KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHDAGI ROLI: INDONEZIYA, MALAYZIYA VA POKISTON TAJRIBASI	119
Voxidov Oybek Roziqovich	
TEXNIKA XAVFSIZLIGI BO'YICHA XODIMLARNI O'QITISH VA BILIMINI BAHOLASH TIZIMI	125
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
AQLLI SHAHARLARDA TRANSPORT OQIMINI NEYRON TARMOQLARI YORDAMIDA BASHORAT QILISH.. ..	131
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
ARXITEKTURAVIY LOYIHALASH FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH... ..	138
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
NUKUS SHAHRI TURAR JOY MAHALLALARIDA AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR TIZIMINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	145
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
BANKLARDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI HAMDA XORIJ TAJRIBALARI TAHLILI	151
Erkinova Feruza Najmitdinovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARNING ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARI TAHLILI.....	156
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA TASHILAYOTGAN YUKLAR USTIDAN SAMARALI BOJXONA NAZORATINI TA'MINLASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Berdiyev Abbos, Ergashev Qobiljon	



TEMIR YO'L TRANSPORTIDA TASHILAYOTGAN YUKLAR USTIDAN SAMARALI BOJXONA NAZORATINI TA'MINLASHNING TASHKILIIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Berdiyev Abbas

Bojxona qo'mitasi bo'lim boshlig'i
ORCID: 0009-0003-6447-0248

Ergashev Qobiljon Ernazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Bojxona instituti «Bojxona nazorati» kafedrası dotsenti
ORCID: 0009-0005-9940-7939

Annotatsiya. Temir yo'l transportida tashilayotgan yuklar ustidan bojxona nazoratini tashkil etishning amaldagi tashkiliy-boshqaruv mexanizmi tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida 2020-2024-yillarda temir yo'l chegara bojxona postlari orqali olib o'tilgan yuk oqimining dinamikasi, postlar kesimidagi oqim konsentratsiyasi ($HHI = 2\,266$), texnik nazorat vositalarining yuk hajmi bo'yicha vaznlangan qamrovi hamda 2024-2025-yillarda hujjatlashtirilgan 11 ta huquqbuzarlik holatining aniqlash kanallari bo'yicha empirik taqsimoti baholangan. Olingan natijalar temir yo'l transportida bojxona nazoratining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: temir yo'l bojxona nazorati, tashkiliy-boshqaruv mexanizmi, tanlanma nazorat, xavfni boshqarish, vagon xavf profili, tranzit, SMGS, inspeksion ko'rik majmuasi, savdoni soddalashtirish, chegara ishqalanishi.

Аннотация. Проведён системный анализ действующего организационно-управленческого механизма таможенного контроля грузов, перевозимых железнодорожным транспортом. Исследованы динамика грузопотока через железнодорожные пограничные таможенные посты за 2020-2024 годы, концентрация грузопотока в разрезе постов ($HHI = 2\,266$), взвешенный по объёму охват техническими средствами таможенного контроля, а также эмпирическое распределение 11 документально подтверждённых случаев правонарушений за 2024-2025 годы по каналам их выявления. Полученные результаты позволяют определить приоритетные направления совершенствования организационно-управленческого механизма повышения эффективности таможенного контроля на железнодорожном транспорте.

Ключевые слова: таможенный контроль на железнодорожном транспорте, организационно-управленческий механизм, выборочный контроль, управление рисками, профиль риска вагона, транзит, СМГС, инспекционно-досмотровый комплекс, упрощение процедур торговли, пограничное трение.

Abstract. A systemic analysis is presented of the existing organisational and managerial mechanism for customs control of goods transported by rail. The study evaluates freight flow dynamics through railway border customs posts during 2020-2024, the concentration of freight flows across customs posts ($HHI = 2,266$), the volume-weighted coverage of technical customs control equipment, and the empirical distribution of eleven documented violation cases recorded in 2024-2025 by detection channel. The findings identify priority directions for improving the organisational and managerial mechanism aimed at enhancing the effectiveness of customs control in railway transport.

Keywords: railway customs control, organisational and managerial mechanism, selective control, risk management, wagon risk profile, transit, SMGS, non-intrusive inspection, trade facilitation, border friction.

KIRISH

Temir yo'l transporti O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo va tranzit aloqalarida markaziy o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son¹ qarori bilan tasdiqlangan *Transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra*, **2024-yilda** xalqaro yuk tashish hajmi 59,6 mln tonnani tashkil etgan bo'lib, uning 43,0 mln tonnasi, ya'ni 72,1 foizi aynan temir yo'l transporti hissasiga to'g'ri kelgan [1]. Mamlakatdagi umumiy foydalanishdagi temir yo'llarning umumiy uzunligi 7 400 kmni tashkil etadi, chegaraoldi temir yo'l bekatlarida esa Davlat chegarasidan o'tkazishning 17 ta punkti faoliyat yuritadi [1]. **2025-yilda** magistral temir yo'l transporti orqali 107,9 mln tonna yuk tashilgan [16].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D. Widdowson bo'jxona nazoratini «**muvofiglik uzluksizligi**» (**compliance continuum**) konsepsiyasi doirasida tahlil qilib, nazorat resurslarini muvofiglik darajasi past bo'lgan subyektlarga yo'naltirish tamoyilini asoslab bergan [2]. Muallifning fikriga ko'ra, bo'jxona faoliyati samaradorligining asosiy mezonini tekshirilgan yuklar ulushi emas, balki tekshiruvlarning natijadorligi (**hit rate**) hisoblanadi. Mazkur yondashuv Jahon bo'jxona tashkiloti (JBT)ning qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasida bo'jxona nazoratini xavfni boshqarish tamoyillari asosida amalga oshirish qoidasi orqali normativ jihatdan mustahkamlangan [3].

J. Hintsa va hammualliflar tomonidan 24 ta bo'jxona ma'muriyatini qamrab olgan tadqiqotda xavfni boshqarish tizimining amaldagi samaradorligi uchta omilga bevosita bog'liqligi aniqlangan: oldindan olinadigan ma'lumotlarning to'liqligi, ma'lumot manbalarining xilma-xilligi hamda teskari aloqa mexanizmining mavjudligi [4]. Ushbu xulosa temir yo'l transportida yuk tashishni tashkil etish amaliyoti uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bunda oldindan taqdim etiladigan ma'lumotlar (poyezdlarni uzatish qaydnomasi va natura varag'i) asosan transport-texnologik xususiyatga ega bo'lib, ular tijorat ma'lumotlari (invoys, kelib chiqish sertifikatini va boshqa hujjatlar) bilan to'ldirilmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ketma-ket tushuntiruvchi (**sequential explanatory**) aralash metodlar dizayni asosida amalga oshirilgan bo'lib, to'rt bosqichni qamrab oladi.


1-bosqich — institutsional-huquqiy tahlil. O'zbekiston Respublikasining Bo'jxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 27-yanvardagi** "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son² qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bo'jxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bo'jxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son³ qarorlari, Bo'jxona qo'mitasi hamda "**O'zbekiston temir yo'llari**" Ajning **2024-yil 22-maydagi** 100-son qo'shma qarori bilan tasdiqlangan Texnologik sxema, shuningdek, Bo'jxona qo'mitasining 167-, 177-, 101- va 203-son buyruqlari TFA, Kioto konvensiyasi va SAFE standartlari talablari bilan qiyosiy tahlil qilingan.

2-bosqich — statistik-empirik tahlil. **2020-2024-yillar** bo'yicha 15 ta temir yo'l chegara bo'jxona posti kesimidagi yuk oqimi ma'lumotlari qayta ishlangan. Oqim konsentratsiyasi Herfindal-Hirshman indeksi (HHI) yordamida baholangan, texnik nazorat vositalarining qamrovi esa qurilmalar soni bo'yicha emas, balki yuk hajmi bo'yicha vaznlangan holda hisoblangan. Shuningdek, **2024-2025-yillarda** hujjatlashtirilgan 11 ta huquqbuzarlik holati aniqlash kanallari, yashirish usullari hamda tovar nomenklaturasi bo'yicha tasniflangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuk oqimi dinamikasi va uning strukturaviy siljishi


- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 27-yanvardagi** "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 27-yanvardagi** "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>
- 3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bo'jxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bo'jxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qaror: <https://lex.uz/uz/docs/-7452043>



1-rasm. Temir yo'l chegara bojxona postlari orqali olib o'tilgan yuklar dinamikasi⁴

2020-2023-yillarda temir yo'l chegara bojxona postlari orqali olib o'tilgan yuk hajmi 32,6 mln tonnadan 45,3 mln tonnaga, ya'ni 38,9 foizga oshgan. **2024-yilda** esa mazkur ko'rsatkich 41,4 mln tonnani tashkil etib, 8,8 foizga kamaygan. Biroq ushbu o'zgarish bir xil xarakterga ega emas. Jumladan, import hajmining qisqarishi (23,99 mln tonnadan 19,26 mln tonnagacha, ya'ni 19,7 foizga) umumiy yuk hajmining pasayishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, eksport hajmi, aksincha, 4,42 mln tonnadan 5,33 mln tonnagacha, ya'ni 20,7 foizga oshgan. Tranzit hajmi nisbatan barqaror saqlanib qolgan (16,93 mln tonnadan 16,78 mln tonnagacha), biroq uning umumiy yuk oqimidagi ulushi 37,3 foizdan 40,6 foizgacha ortgan.

Yuk oqimining konsentratsiyasi va nazorat resurslarining taqsimlanishi



2-rasm. Temir yo'l chegara bojxona postlarida yuk oqimining konsentratsiyasi (2024-yil)⁵

Hisob-kitoblar yuk oqimining postlar kesimida notekis taqsimlanganini ko'rsatadi. **2024-yilda «Chuqursoy texnik idora»** temir yo'l chegara bojxona posti hissasiga umumiy yuk hajmining 39,9 foizi to'g'ri kelgan. Dastlabki uchta post umumiy yuk oqimining 68,8 foizini, beshta post esa 83,5 foizini qamrab olgan. Yo'nalishlar kesimida Qozog'iston chegarasi orqali o'tuvchi yuk oqimi 66,0 foizni tashkil etgan. Postlar bo'yicha hisoblangan Herfindal-Hirshman indeksi (HHI) 2 266 birlikni tashkil etib, bozor konsentratsiyasini baholash mezonlariga ko'ra yuqori chegaraga yaqin darajani ifodalaydi.

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi




1-jadval

Temir yo'l chegara bojxona postlarida yuk hajmi va texnik nazorat vositalarining qamrovi (2024-yil)⁶

Post nomi	Hajm, ming tn	Ulush, %	IKM	Elektron tarozi
«Chugursoy texnik idora» t/y ch.b.p	16 492,2	39,9	bor	bor (3 ta)
«O'zbekiston» t/y ch.b. punkti (Keles)	8 675,2	21,0	bor	yo'q
«Ayritom» ch.b.p	3 317,0	8,0	bor	bor
«Bekobod» t/y ch.b.p	3 282,3	7,9	bor	bor
«Sariosiyo» t/y ch.b.p	2 789,1	6,7	bor	yo'q
«Qoraqalpog'iston» t/y ch.b.p	2 153,9	5,2	bor	bor
«Savay» t/y ch.b.p	1 890,8	4,6	yo'q	bor
«Xo'jadavlat» t/y ch.b.p	1 570,6	3,8	bor	bor
Qolgan 7 ta post	1 207,3	2,9	1 tasida	yo'q
Jami / qamrov darajasi	41 378,4	100,0	92,7 %	69,4 %

Huquqbuzarliklarni aniqlash kanallarining empirik tahlili

3-rasm. Temir yo'l transportida bojxona qoidabuzarliklarini aniqlash kanallarining taqsimoti⁷

Uslubiy qo'llanmada [10] hujjatlashtirilgan 11 ta huquqbuzarlik holati aniqlash kanallari bo'yicha tasniflangan. Tahlil natijalariga ko'ra, holatlarning 36,4 foizi inspeksion ko'rik majmuasi (IKM) yordamida, 36,4 foizi tezkor tadbirlar hamda inspektor shubhasi asosida aniqlangan. Qolgan 27,2 foizi esa elektron tarozi, kinologiya xizmati va jismoniy bojxona ko'rigi orqali aniqlangan. Umumlashtirilgan holda texnik vositalar yordamida aniqlangan holatlar ulushi 45,5 foizni, tezkor-tahliliy usullar va inson omili asosida aniqlangan holatlar ulushi esa 54,5 foizni tashkil etadi.

Amaldagi mexanizmning xalqaro talablarga muvofiqligi

2-jadval

Amaldagi tashkiliy-boshqaruv mexanizmining xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlili⁸

Xalqaro talab	O'zbekistondagi holat	Muvofiqlik darajasi
TFA 7.1-modda. Oldindan axborot berish	Poyezdlarni uzatish qaydnomasi (PPV) va natura varag'i tarkib kelishidan 1 soat oldin (chiqishda 2 soat oldin) taqdim etiladi. Biroq inyoys va boshqa tijorat ma'lumotlari ushbu axborot tarkibiga kiritilmagan.	Qisman
TFA 7.4-modda. Xavfni boshqarish	PQ-122-son qarori bilan «yashil/sariq/qizil» yo'laklar tizimi joriy etilgan, biroq u deklaratsiya darajasida qo'llaniladi. Vagonlarni ko'zdan kechirish jarayoni yoppasiga amalga oshiriladi, tanlanma model esa sinov tariqasida bitta postda joriy etilmoqda.	O'rta

6 Manba: [10] ma'lumotlari asosida mualliflik hisob-kitobi.

7 Muallif ishlanmasi

8 Manba: [1; 7; 8; 10] asosida mualliflik tahlili




Xalqaro talab	O'zbekistondagi holat	Muvofiqlik darajasi
TFA 7.6-modda. Chiqarish vaqtini o'lchash	Temir yo'l yo'nalishi bo'yicha institutsionallashtirilgan <i>Time Release Study</i> o'tkazilmaydi. Muddatlar faqat me'yoriy tartibda (45 daqiqa, 1 soat) belgilangan.	Past
TFA 8-modda. Chegara idoralari hamkorligi	Qo'shma naryad tomonidan ko'zdan kechirish 45 daqiqa ichida amalga oshiriladi. 100-son qo'shma qaror asosida «O'zbekiston temir yo'llari» AJ bilan 9 ta, jami 6 ta idora bilan 20 ta yo'nalish bo'yicha elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.	Yuqori
TFA 10.4-modda. «Yagona darcha»	«Yagona darcha», «E-Tranzit» va «Temir yo'l» axborot tizimlari faoliyat yuritadi, biroq qo'shni davlatlarning axborot tizimlari bilan integratsiya to'liq ta'minlanmagan. Nazorat natijalarini o'zaro tan olish mexanizmi hali to'liq shakllanmagan [1].	O'rta
TFA 11-modda. Tranzit erkinligi	Tranzit deklaratsiyasi VMQ-737 va AV-3382 asosida rasmiylashtiriladi. Olib chiqish yo'nalishidagi 4 ta bojxona rejimida plomba qo'yish majburiyati bekor qilingan.	Yuqori
Kioto konvensiyasi, E maxsus ilovasi	Bojxona kodeksining 197-moddasiga muvofiq xorijiy bojxona organlari, jo'natuvchilar va tashuvchilar tomonidan qo'yilgan plomba hamda muhrlar identifikatsiya vositasi sifatida tan olinadi.	Yuqori
SAFE, 1- va 2-ustunlar (AEO)	Vakolatli iqtisodiy operator instituti temir yo'l tashuvchilari va ekspeditorlarga nisbatan tatbiq etilmagan. Soddalashtirishlar subyektga emas, balki bojxona rejimiga nisbatan qo'llaniladi.	Past

Qiyosiy tahlil natijalari O'zbekistonda idoralararo hamkorlikni tashkil etish hamda identifikatsiya vositalarini tan olish yo'nalishlarida xalqaro talablar bilan muvofiqlik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, **(i)** oldindan taqdim etiladigan axborot asosan transport-texnologik ma'lumotlar bilan cheklangan; **(ii)** xavfni boshqarish tamoyili vagon darajasida to'liq joriy etilmagan; **(iii)** rasmiylashtirish vaqtini o'lchash tizimi institutsional asosda yo'lga qo'yilmagan. Mazkur yo'nalishlarni takomillashtirish islohotlar natijadorligini yanada samarali baholash va keyingi rivojlanish choralari belgilash imkonini beradi. Aynan ushbu yo'nalishlar quyida taklif etilayotgan modelning asosiy maqsadli nuqtalarini belgilaydi.

«Temir yo'l bojxona nazoratining integratsiyalashgan tashkiliy-boshqaruv modeli» (TYIBM)

Tadqiqotning markaziy ilmiy natijasi **4-rasmda** keltirilgan to'rt konturli modeldan iborat. Mazkur model «**kiritma** → **jarayon** → **natija**» mantiqiga asoslanib, Jahon bojxona tashkilotining (JBT) SAFE standartlari hamda Kioto konvensiyasining xavfni boshqarish tamoyillari asosida temir yo'l transportining texnologik xususiyatlariga moslashtirilgan.



4-rasm. «Temir yo'l bojxona nazoratining integratsiyalashgan tashkiliy-boshqaruv modeli» (TYIBM)⁹

I kontur — institutsional-huquqiy asos. Mazkur kontur Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son¹⁰ qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son¹¹ qarorlari, VMQ-737-son qarori, SMGS bitimi, Kioto konvensiyasi, TFA va SAFE standartlari, «Texnologik sxema», shuningdek, qo'shni davlatlar bilan tuzilgan shartnomaviy-huquqiy bazani qamrab oladi. Ushbu kontur bojxona nazorati vakolatlari hamda soddalashtirish choralarining huquqiy chegaralarini belgilaydi.

II kontur — axborot-integratsion qatlam. Mazkur konturning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ilgari alohida shakllangan ikki turdagi ma'lumotlar oqimi — transport-texnologik ma'lumotlar (PPV, natura varag'i, dislokatsiya, vagon egaligi) hamda tijorat ma'lumotlari (SMGS yuk xati, invoys va sertifikatlar) yagona analitik ma'lumotlar bazasida integratsiyalashadi. Aynan ushbu integratsiya 3-bandda keltirilgan xatolik turlarini, ya'ni sana nomutanosibligi, vagon turi bilan tovarning mos kelmasligi, vazn va hajm nisbatining buzilishi hamda identifikatsiya raqamlaridagi tafovutlarni avtomatik rejimda aniqlash imkonini beradi.

TYBNSI kompozit indeksi va ssenariy prognozlar

Modelni joriy etish darajasini miqdoriy baholash maqsadida «Temir yo'l bojxona nazorati samaradorligi indeksi» (TYBNSI) taklif etiladi. Mazkur indeks olti o'lchovning vaznlangan yig'indisi sifatida hisoblanadi:

$$TYBNSI = \sum w_i \cdot I_i, \text{ bunda } I_i \in [0;1], \sum w_i = 1.$$

3-jadval

TYBNSI indeksining o'lchovlari, vaznlari va qiymatlari¹²

O'lchov	Belgi	Vazni (w_i)	2025-y. baho	2030-y. maqsad
Oldindan axborot ta'minotining to'liqligi	I_1	0,20	0,55	0,90
Tanlanma nazorat darajasi (selektivlik)	I_2	0,20	0,25	0,85
Texnik vositalar qamrovi (vaznlangan)	I_3	0,15	0,81	0,95

9 Muallif ishlanmasi

10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qaror: <https://lex.uz/uz/docs/-7452043>

12 Mualliflik ishlanmasi; joriy qiymatlar [10; 12] ma'lumotlari hamda ekspert baholari asosida hisoblangan



O'lchov	Belgi	Vazni (w_i)	2025-y. baho	2030-y. maqsad
Jarayon tezligi (rasmiylashtirish vaqti)	I_4	0,20	0,40	0,85
Aniqlash samaradorligi (hit rate)	I_5	0,15	0,45	0,75
Idoralararo va transchegaraviy integratsiya	I_6	0,10	0,60	0,90
TYBNSI (integral qiymat)	—	1,00	0,49	0,87


Hisob-kitoblarga ko'ra, indeksning **2025-yildagi** qiymati 0,49 ni tashkil etadi. Eng past qiymat tanlanma nazorat o'lchoviga (0,25) to'g'ri keladi, bu esa mazkur yo'nalishni yanada rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Eng yuqori qiymat texnik vositalar qamrovi o'lchoviga (0,81) to'g'ri keladi, ya'ni zarur infratuzilmaviy asos shakllantirilgan. Demak, mavjud texnik salohiyatdan boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish orqali yanada samarali foydalanish imkoniyati mavjud.

Model samaradorligini prognozlash maqsadida izoelastik spetsifikatsiya qo'llanildi:

$$Q = Q_0 \cdot (1 + g)^n \cdot (T/T_0)^{\varepsilon},$$

bunda Q — tranzit yuk oqimi, T — chegarada sarflanadigan o'rtacha vaqt, g — bazaviy talabning o'sish sur'ati (2,8 %), $n = 6$ yil, ε — chegara «ishqalanishi» bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti.

Bazaviy ssenariyda $\varepsilon = -0,32$ qabul qilingan, sezgirlik tahlili esa $\varepsilon \in [-0,20; -0,45]$ oralig'ida o'tkazilgan (5-rasm).



5-rasm. Chegara «ishqalanishi» elastikligi va 2030-yilga ssenariy modellash natijalari¹³

Inertion ssenariy (status quo). Chegaradagi o'rtacha vaqt 185 daqiqa darajasida saqlanadi, o'sish esa asosan umumiy tranzit talabining ortishi hisobiga ta'minlanadi. TYBNSI indeksi 0,55 darajasida shakllanadi. **2030-yil** uchun prognozga ko'ra, tranzit yuk oqimi 17,0 mln tonnani tashkil etadi. Mazkur natija O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 27-yanvardagi** "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son¹⁴ qarori qarorida belgilangan 22 mln tonnalik maqsadli ko'rsatkichga nisbatan qo'shimcha rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari temir yo'l transportida bojxona nazoratini tashkil etish bo'yicha uchta asosiy ilmiy natijani shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, «**temir yo'l bojxona nazoratining tashkiliy-boshqaruv mexanizmi**» tushunchasining mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Mazkur tushuncha bojxona organlarining temir yo'l o'tkazish punktlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash funksiyasini saqlagan holda, nazorat obyektini poyezd tarkibidan alohida vagon (konteyner) darajasiga o'tkazish, oldindan olinadigan transport-texnologik hamda tijorat ma'lumotlarini yagona analitik bazada integratsiyalash va nazorat intensivligini xavf darajasiga mutanosib ravishda taqsimlash orqali yuk tashish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan institutsional faoliyat sifatida tavsiflanadi.

Ikkinchidan, Vakolatli iqtisodiy operator (AEO) institutini temir yo'l tashuvchilari, ekspeditorlar va konteyner operatorlariga nisbatan tatbiq etish hamda ular uchun soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillarini joriy etish

¹³ Muallif ishlanmasi

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 27-yanvardagi** "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>



maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchidan, yoppasiga koʻzdan kechirish amaliyoti oʻrniga xavf profillari asosida yoʻnaltiriladigan koʻchma (mobil) nazorat guruhlarini faoliyatini bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv kadrlar resurslaridan yanada oqilona va samarali foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, bojxona nazorati ostidagi tranzit vagonlari uchun navigatsion plombalar hamda dislokatsiya maʼlumotlari asosida ularning bojxona hududida boʻlish muddatini avtomatik monitoring qilish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 27-yanvardagi** PQ-28-son «Oʻzbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori [Elektron resurs]. – Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/acts/7342148> (murojaat qilingan sana: 01.08.2026).
2. Widdowson, D. **Managing Risk in the Customs Context** / D. Widdowson // *Customs Modernization Handbook* / eds. L. De Wulf, J. B. Sokol. – Washington, DC : World Bank, 2005. – P. 91–99.
3. World Customs Organization. **International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Revised Kyoto Convention)**. – Brussels : WCO, 1999. – (The Republic of Uzbekistan acceded under the Law of the Republic of Uzbekistan No. OʻRQ-654 dated **2020-yil 21-dekabr**).
4. Hints, J. **Customs Risk Management (CRiM): A Survey of 24 WCO Member Administrations** / J. Hints, J. Ahokas. – Lausanne : Cross-border Research Association, 2010. – 68 p.
5. Moisé, E. **Trade Facilitation Indicators: The Potential Impact of Trade Facilitation on Developing Countries' Trade** / E. Moisé, S. Sorescu // *OECD Trade Policy Papers*. – Paris : OECD Publishing, 2013. – No. 144.
6. Grainger, A. **Trade Facilitation: A Conceptual Review** / A. Grainger // *Journal of World Trade*. – 2011. – Vol. 45, No. 1. – P. 39–62.
7. World Trade Organization. **Agreement on Trade Facilitation (TFA)**. – Geneva : WTO, 2017.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100